

“TALABA YOSHLARNING HUQUQIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA KONSTITUTSIYANING TUTGAN O’RNI”

Qodirqulova Mohichehra Zafarjon qizi

**Guliston Davlat Pedagogika Instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti Milliy istiqlol
g’oyasi va ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi 2-bosqich talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10005773>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada mamlakatimizdagi jami aholining 30foizini tashkil qilgan talabalar qatlamaning huquqiy ongi va savodxonligi, talaba yoshlarning konstitutsiya normalari va qoidalarni qay darajada bilishi va uni hayotga tatbiq qilish salohiyati haqida sòz boradi.

KALITSO’ZLAR: talaba yoshlar, yoshlar siyosati, huquq, konstitutsiya, huquqiy ong, fuqaro, referendum, huquqbuzarlik, huquq normalari va boshqala .

Mamlakatimizda shiddatli va kutilmagan jarayonlar va o’zgarishlar ro’y bermoqda. Har bir o’zini biror mamlakatning fuqarosi deb hisoblagan shaxs davlat va jamiyat hayotida ro’y berayotgan voqea-hodisalar, davlat hokimiyati yohud uning boshqaruvi borasida ro’y berayotgan islohotlardan, bu islohotlar ijtimoiy sohada bo’ladimi, iqtisodiy, siyosiy yohud huquq-tartibot sohasidami boxabar bo’lishi shart va bu zamon talabidir.

Demokratik huquqiy davlat erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda yangi O’zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o’rin egallashiga erishish kabi buyuk maqsadlar oldida yoshlarning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish davlatning jamiyat oldidagi eng dolzarb va birlamchi vazifasidir. Yuksak huquqiy ong hamda madaniyat jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil qiladi. Demak ta’lim tarbiyani modernizatsiyalash va uni jahon andozalari darajasida tashkil qilishda huquqiy tarbiya ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish eng avvalo ularda qonunlarga hurmatni shakllantirish, o’z huquq va burchlarini to’liq anglab yetish va ularga rioya etish, yoshlar o’rtasidagi munosabatlarda befarqlikka yo’l qo’ymaslik, yoshlar o’rtasida, xususan, talaba yoshlar o’rtasidagi jinoyatchilikning oldini olish va bir qator muammolarning amaliy yechimi sifatida xizmat qiladi. Joriy yilning 1-yanvar holatiga ko’ra mamlakatimizda 14-30 yoshdagi jami doimiy aholi soni 9mln 685ming 564 nafarni tashkil etmoqda. Mamlakatimizda 2022-2023 o’quv yiliga qabul boshlangan paytda talabalarning umumiy soni 1040 400 nafarga yetgan. Oliygothlar soni esa 191 tani tashkil etmoqda. Talabalarning 52 foizi yigitlar, 48 foizi xotin qizlardir. Statistika ma’lumotlari O’zbekiston aholisining aksariyat qismini yoshlar tashkil etishini ko’rsatmoqda. Talaba yoshlar esa davlat va jamiyat hayotida o’zining ajralmas va sezilarli o’rniga ega ekanligini hisobga oladigan bo’lsak ushbu qatlamning huquqiy hamda siyosiy ongi muhim hodisa hisoblanadi. Shunday ekan talabalarning huquqiy ongi ayni damda qanday holatda? Huquqiy ong bu faqat mamlakat qonunlarini bilish va ularni hurmat qilishdan iborat emas. Huquqiy ong bu o’z haq huquqlarini bilish bilan birga o’z burch va majburiyatlarini yaxshi anglash va ularni ongli ravishda amalga oshirish demakdir. Talaba yoshlar o’rtasidagi ayniqsa nafaqat o’z huquqining poymol bo’lishiga, balki o’z zamondoshining ham poymol bo’lgan huquqlariga befarq bo’lmasligida namoyon bòlishi lozim. Har bir fuqaroning huquq va erkinliklari haqida gap ketganda, avvalo mamlakatimizning bosh qomusi -Konstitutsiyada aks etgan va mustahkamlanganini huquq va erkinliklarga tòxtalish asoslidir. Konstitutsiyamizning 2-bòlimi “Inson va fuqarolarning asosiy

huquq va erkinliklari , burchlari” deb nomlangan va unda respublika fuqarolarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari bilan birgalikda bir qator burch va majburiyatlar ham sanab o'tilgan. Shunday ekan talabalar mamlakatlarning oliy ma'lumotga ega qatlami sifatida konstitutsiyamizda e'tirof etilgan norna va qoidalardan boxabar bo'lish bilan birga uni amaliyotga tatbiq etilishini o'z vazifasi va oliy burchi sifatida qarashi kerak. Darhaqiqat huquqiy ong mamlakat konstitutsiyani bilishdan boshlanadi .

Mamlakatimizdagi yaqin so'nggi kunlarda davlat va fuqarolarning hayotiga va kelajagiga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi muhim siyosiy hodisa ro'y berdi. 2023- yil 30 -aprelda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni umumxalq referendumiga qo'yilishida qatnashdi va o'z ovozi berishdi. Bunday siyosiy voqealarga befarq bo'lmaslik, mamlakat konstitutsiyasiga kiritilayotgan o'zgarishlardan boxabar bo'lish referendumda faol ishtirok etish huquqiy madaniyatning shakllanishining yaqqol ko'rinishi emasmi?!

Barchamiz referendumda qatnashish bilan birga referendumga qo'yilgan masalalar va qonunchiligimizga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar haqida malumotga ega o'lishimiz kerak.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan amaldagi Konstitutsiyaga 27ta yangi modda kiritildi, moddalar soni 127tadan 155taga oshdi. Konstitutsiyaning amaldagi 275 ta normasi 434taga ko'paydi, ya'ni referendumdan oldin amalda bo'lgan konstitutsiyamiz 65%ga yangilandi. Kiritilayotgan asosiy yangiliklardan biri O'zbekiston suveren , ijtimoiy va huquqiy davlat deb qat'iy belgilab qo'yilmoqda. Yangilangan konstitutsiyada kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish kabi majburiyatlarni ham davlat o'z zimmasiga olganligi muhim ahamiyatga egadir.

Referendumning o'zi nima degan savolga javob quyidagicha: O'zbekiston Respublikasi Referendumi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini va boshqa qarorlarini qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir..

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “Konstitutsiyaviy huquq “.Darslik. O.T.Husanov.2022.
3. “Davlat va huquq nazariyasi “.Darslik. O. Qoriyev.2012.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risidagi” 2020-yil 30-iyundagi 6017-sondagi farmoni.